




OILA VA GENDER
ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

M.QURONOV, X.ABDURAMANOV,
N.DALIMOVA

OTA-ONALIKKA TAYYORLIK

USLUBIY QO'LLANMA

“Pages print” nashriyoti,
Toshkent – 2025



◆ ◆ ◆

Farzand tarbiyasi – o‘ta murakkab va mas‘uliyatli, aniq natijalar beruvchi jarayon. Bu esa har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma‘lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi o‘z ichiga pedagogik, ma‘naviy-axloqiy, tibbiyot, etika, psixologiya, iqtisodiyot kabi sohalarga oid bilimlarni qamrab oladigan murakkab jarayondir. Hozirgi globallashuv davrida yosh ota-onaning bu bilimlarni bilishi bolaning kelajagi qanday bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biz sizlar bilan juda muhim va dolzarb muammoni muhokama qilamiz. Yigitlarimizni otalikka, qizlarimizni onalikka tayyorlashini bilamizmi? Aslida yigit-qizlar ota-onalikka qanday tayyorlanishlari kerak?

“Ota-onalikka tayyorgarlik” tushunchasi bir nechta yo‘nalishlarga ega. Ya‘ni Siz ota-onalikka tayyorman, deya olishingiz uchun bir nechta talablarga javob berishingiz kerak. Ushbu qo‘llanma bo‘lajak kelin-kuyovlarga, bo‘lajak ota-onalarga ana shu savollarga javob berishga yordam berish maqsadida tayyorlandi.

Uslubiy qo‘llanma Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 28-martdagi 3-sonli bayonnomasiga muvofiq nashrga tavsifa etilgan.

Mas‘ul muharrir: **Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,**
pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: **A.Sh.Muxsiyeva,**
pedagogika fanlari doktori, professor

X.X.Saydivaliyeva,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

UO‘K: 37.018.1:316.362

KBK: 74.905+60.56

Q 80

**M.Quronov, X.Abduramanov,
N.Dalimova.**

Ota-onalikka tayyorlik [Matn]:
uslubiy qo‘llanma / M.Quronov,
X.Abduramanov, N.Dalimova. –
Toshkent: “Pages print” nashriyoti, 2025.
– 60 b.

ISBN: 978-9910-8722-6-6

© “Pages print” nashriyoti, 2025.

MUNDARIJA

	Kirish	4
1.	Turmush qurishning asosiy maqsadlari	6
2.	Yigit va qizning oila qurishga tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak?	12
3.	Ota-onalikka ma'naviy, jismoniy, ruhiy va moliyaviy tayyorlik	17
4.	Bolalar tarbiyasida teng sheriklik	28
5.	Sog'lom muloqot tamoyillari	31
6.	Nizolarni hal qilish	33
7.	Yosh oilalarning axloqiy tamoyillari	35
8.	Bo'lajak ota-onalar zamonaviy texnologiyalar va bolalar haqida nimalarni bilishlari kerak?	36
9.	Baxtli oila qurishning yo'llari	39
10.	XXI asrning bo'lajak ota-onalarga talablari	41
11.	Oila qurmoqchi bo'layotgan yoshlarga ezgu tilaklar	43
12.	Ota-onalik arafasida: chaqaloqning xonasi, unga olinadigan buyumlar	45
13.	Yosh ota-onalarning shaxsiy rivojlanishi	54
	Xulosa	56


KIRISH

Ota-onalik nafaqat shaxsiy hayotning muhim bosqichi, balki jamiyat taraqqiyotidagi asosiy maskan hisoblanadi. Bolalar tarbiyasi va ularning kamolotiga qaratilgan e'tibor har bir oilaning kelajagini belgilaydi. Ota-onalar farzandlari uchun qadriyatlarni avlodlarga yetkazuvchilari, ma'naviyat va axloqning asosiy ustunlaridir. Shuning uchun ham ota-onalik juda katta mas'uliyatni talab etadi.

Yoshlar uchun oila qurishdan avval uni to'g'ri rejalashtirish juda muhimdir. Bu jarayon nafaqat moddiy, balki ruhiy, ma'naviy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Oilani to'g'ri rejalashtirish orqali yoshlar barqaror va baxtli turmushga erishishlari mumkin. Bu nafaqat ularning shaxsiy hayotiga, balki farzandlarining rivojlanishiga va jamiyatning umumiy farovonligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu qo'llanma ota-onalikka tayyorgarlik borasida yoshlarga amaliy maslahatlar va ilmiy yondashuvlarni taqdim etishni maqsad qiladi. Kitobda oilani rejalashtirishdan tortib, bolalar tarbiyasi, ota-onalik mas'uliyati, oiladagi munosabatlar va zamonaviy davr talablariga mos yo'l-yo'riqlar bayon etiladi. Shuningdek, qo'llanma o'zini ota-ona sifatida rivojlantirishga intilayotganlar uchun ham foydali resurslar va maslahatlar manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanma nafaqat yangi oila qurish arafasidagi yoshlar, balki farzand tarbiyasiga allaqachon qadam qo'ygan ota-onalar uchun ham manfaatli qo'llanma bo'ladi. Ushbu sa'y-harakatlar orqali har bir oilada nafaqat ma'naviy barqarorlikni, balki farzandlarning baxtli va barkamol rivojlanishini ham ta'minlashga hissa qo'shamiz.



HURMATLI YOSH YIGIT-QIZLAR!

Kelajakda baxtli oila qurish va shirin-shakar farzandlarga munosib ota va ona bo'lish, ularga munosib tarbiya berish uchun tayyorgarlikni hozirdanoq boshlaylik!



1

TURMUSH QURISHNING ASOSIY MAQSADLARI

Oila inson hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy institut bo'lib, u shaxsiy munosabatlarni mustahkamlash, jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shish va avlodlar tarbiyasini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Oila insonni ma'naviy va axloqiy jihatdan boyituvchi muhitni yaratib, uning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, turmush qurish nafaqat shaxsiy hayot uchun, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji uchun mustahkam oilalar zarur bo'lib, turmush qurish orqali inson mas'uliyatni anglaydi va muhim qadriyatlarni o'zida shakllantiradi. Oila mustahkamligi orqali jamiyatda tinchlik, mehr-oqibat va barqarorlik ta'minlanadi. Oilaning mustahkamligi jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilib, undagi har bir a'zoning hamjihatlik, o'zaro hurmat va mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashiga zamin yaratadi.

“

**OILA QURISH JARAYONI FAQAT SEVGI
VA SHUNGA O'XSHASH HISSIYOTLAR BILAN
EMAS, BALKI ONGLI QAROR QABUL QILISH,
REJALASHTIRISH VA MAS'ULIYATNI HIS QILISH
BILAN BOG'LIQDIR!**

”

Nikoh munosabatlari inson hayotining turli jabhalarida, jumladan, iqtisodiy, axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Turmush qurish natijasida oilaviy iqtisodiy farovonlik shakllanadi, oilaviy byudjet boshqaruvi orqali rejalashtirilgan hayot kechiriladi.

TURMUSH QURISHNING 6 TA ASOSIY MAQSADI

1

FARZANDLI BO'LISH VA AVLOD DAVOMIYLIGINI TA'MINLASH

Bu maqsad inson hayotining biologik va ma'naviy davomiyligini ta'minlashga qaratilgan. Turmush qurish orqali ikki inson nafaqat shaxsiy baxtini topadi, balki insoniyatning uzluksizligini, oila an'analari va milliy qadriyatlarining davom etishini ta'minlaydi.

2

MA'NAVIY VA AXLOQIY JIHATDAN YETUK SHAXSGA AYLANISH

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning barqarorligi ijtimoiy tinchlik va taraqqiyotga hissa qo'shadi. Turmush qurish insonni ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxsga aylantirib, mas'uliyat hissini oshiradi.

3

MEHR-MUHABBAT MUHITINI YARATISH

Insonlarga hayot yo'lida yolg'iz emasligini his qildirish, ularni hissiy va ma'naviy jihatdan boyitish hamda baxtli va barqaror oila qurishdan iborat. Mehr-muhabbat muhiti orqali har bir oila a'zosi o'zini qadrlagan, tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan his qiladi.

4

JAMIYATDAGI IJTIMOY MAQOMNI MUSTAHKAMLASH

Turmush qurish insonning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi va barqaror munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Oila insonning ijtimoiy himoyasi bo'lib, unda mas'uliyat va ishonch asosiy o'rin tutadi.

5

OILA IQTISODIYOTINI MUSTAHKAMLASH

Ikki insonning iqtisodiy manfaatlari va imkoniyatlarini birlashtirish orqali barqaror va mustaqil oila iqtisodiyotini shakllantirishdir. Turmush qurgandan so'ng daromadlar birlashadi, umumiy moliyaviy reja tuziladi, oila a'zolari o'rtasida moliyaviy mas'uliyat hissi va birdamlik kuchayadi.

6

HAMKORLIK VA MAS'ULIYATNI HIS QILISH

Turmush qurish insonga hamkorlik va mas'uliyatni his qilish imkonini beradi. Oilada er-xotin bir-birini qo'llab-quvvatlab, muam-molarni birgalikda hal qilishadi. Bu oila mustahkamligi va barqarorligiga xizmat qiladi.

Ota-onalik nafaqat shaxsiy hayotdagi muhim bosqich, balki jamiyat oldidagi yuksak mas'uliyatdir. Farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va barqaror jamiyatni shakllantirish uchun ota-onalar ma'naviy, jismoniy, psixologik va moliyaviy jihatdan yetuk bo'lishlari kerak. Shu bois, ota-onalik jarayoniga puxta tayyorgarlik ko'rish farzandlarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi.

Oila qurish va ota-onalik mas'uliyatini anglash oilaning o'zaro ahil bo'lishiga hissa qo'shadi. Mustahkam oilalar – farovon jamiyat asosidir. Shu sababli, har bir inson o'z oilaviy hayotini rejalashtirayotganda mas'uliyat bilan yondashishi, oila barqarorligi va farzand tarbiyasiga e'tibor qaratishi lozim.

Oilada ulg'ayadigan farzandning qanday inson bo'lib shakllanishi, birinchi navbatda, ota-onaga bog'liq. Tarbiya barcha hikmatlarning avvalidir. Har bir inson o'z farzandining namunali, ilimli va ma'naviyatli bo'lishini orzu qiladi. Bunga erishish uchun esa tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Afsuski, ayrim oilalarda farzandning risoladagidek inson bo'lib yetishuvida tarbiya birinchi o'ringa qo'yilmaydi.

Tarbiyani qachondan boshlash zarurligi haqida ko'plab manbalarda qimmatli ma'lumotlar berilgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, farzand tarbiyasi nikohdan oldin, ota-onaning jufti halolni tanlashidan boshlanadi.

Yigit oila qurishga qaror qilganda hayoli, odobli va soliha qizni tanlashi, qiz esa yaxshi fazilatlariga ega yigit tanlashi lozim. Chunki bu insonlar kelajakda farzandlarning ota-onasiga aylanadi va ular orqali yangi avlod shakllanadi.

MO'TABAR MANBALARDA QAYD ETILISHICHA, FARZAND TARBIIYASI 3 BOSQICHDA AMALGA OSHADI.

1

Munosib jufti halol tanlash – bu bosqich insonning kelgusi hayoti, oilasi, farzandlari va hatto ruhiy hamda ijtimoiy farovonligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Munosib juft tanlash faqat tashqi go'zallik yoki moddiy shartlar asosida emas, balki shaxsiy fazilatlar, axloq, aql-zakovat, mas'uliyat hissi, munosabatlar madaniyati va hayotiy maqsadlarning uyg'unligi asosida amalga oshirilishi kerak.

2

Homila davridagi parvarish – homiladorlik davrida ota va onaning jismoniy, ma'naviy va ruhiy tayyorgarlik ko'rishidir. Bu jarayonda sog'lom ovqatlanish, stressdan holi bo'lish va ijobiy fikr yuritish farzand rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3

Farzand dunyoga kelganidan boshlab tarbiya berish – dastlabki yillar bolaning kelajakda qanday inson bo'lib shakllanishini belgilovchi muhim jarayonidir. Shu sababli, bolaga mehr-muhabbat, sabr va yaxshi axloq asosida tarbiya berish zarur.